

**Marhabo MELIBOYEVA,**

*Qo'qon DPI O'zbek tili kafedrasida katta o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ma'lumki, turkiy xalqlar mafkurasida shomonlik, zardo'shtiylik, moniylik, buddaviylik kabi diniy oqimlar alohida o'rin tutadi. Ana shu diniy oqimlarning har biri alohida qadimgi turkiy adabiyotning ko'rinishlarini yuzaga keltirdi. Shu sababli olimlar qadimgi turkiy adabiyotga kengroq, yangicha nuqtai nazardan yondashish kerakligini ta'kidlaydilar. Qadimgi turkiy adabiyotni moniylik, shomonlik, buddaviylik oqimidagi turkiy adabiyotga bo'lib o'rganish lozimligini aytadilar. "O'g'uznoma" dostoni ham qadimgi turkiy adabiyotning bir namunasi bo'lib, turkiy xalqlarning mushtarak meroslaridan biridir.*

**Kalit so'zlar:** *O'g'uznoma, turk, zardo'sht, adabiyot, mafkura, yodgorlik, doston, shaxs, epos, prototip, meros*

**Аннотация:** *Известно, что такие религиозные течения, как шаманизм, зороастризм, монизм, буддизм занимают особое место в идеологии тюркских народов. Каждое из этих религиозных течений создавало отдельные проявления древнетюркской литературы. По этой причине ученые утверждают, что к древнетюркской литературе необходимо подходит с более широкой, новой точки зрения. Говорят, что древнетюркскую литературу нужно изучать в контексте монашества, шаманизма, буддизма. Эпос «Огузнома» также является образцом древнетюркской литературы и является одним из общих достояний тюркских народов.*

**Ключевые слова:** *Огузнама, тюркский язык, зороастризм, литература, идеология, памятник, эпос, личность, эпос, прототип, наследие*

**Annotation:** *It is known that religious movements such as Shamanism, Zoroastrianism, Monism, Buddhism have a special place in the ideology of the Turkic peoples. Each of these religious currents gave rise to separate appearances*

*of ancient Turkic literature. For this reason, scholars emphasize the need to approach ancient Turkic literature from a broader, new perspective. They say that ancient Turkic literature should be studied in the context of monasticism, shamanism, and Buddhism. The epic "Oguznoma" is also an example of ancient Turkic literature and is one of the common heritage of the Turkic peoples.*

**Key words:** *Oguznama, Turkish, Zoroastrianism, literature, ideology, monument, epic, personality, epos, prototype, heritage*

Insoniyat tafakkurining ilk qatlamlari miflarda o'zining poetik ifodasini topgan. Mif asosida inson ma'naviyati tarbiyasida muhim o'rin tutuvchi adabiyot deb atalmish tushuncha shakllangan.

Turkiy xalqlarning qadimgi yozma adabiyoti xususida so'z ketganda, asosan, o'rxun-yenisey yozuvidagi yodgorliklar tilga olinadi. Ammo bugungi kunda olimlarning izlanishlari samarasi o'laroq, qadimgi turkiy adabiyot faqatgina O'rxun-yenisey yozuvidagi yodgorliklardan iborat emasligi ma'lum bo'ldi. O'rxun-yenisey yozuvidagi yodgorliklar turkiy adabiyotning bir qismi bo'lib, qadimgi turkiy adabiyot yana ko'plab adabiy yodgorliklarga ega ekanligi aniqlandi.

Ma'lumki, turkiy xalqlar mafkurasida shomonlik, zardo'shtiylik, moniylik, buddaviylik kabi diniy oqimlar alohida o'rin tutadi. Ana shu diniy oqimlarning har biri alohida qadimgi turkiy adabiyotning ko'rinishlarini yuzaga keltirdi. Shu sababli olimlar qadimgi turkiy adabiyotga kengroq, yangicha nuqtai nazardan yondashish kerakligini ta'kidlaydilar. Qadimgi turkiy adabiyotni moniylik, shomonlik, buddaviylik oqimidagi turkiy adabiyotga bo'lib o'rganish lozimligini aytadilar .

"O'g'uznoma" dostoni ham qadimgi turkiy adabiyotning bir namunasi bo'lib, turkiy xalqlarning mushtarak meroslaridan biridir. Dostonni, yuqoridagi tasnifga ko'ra, shomonlik oqimidagi turkiy adabiyot sifatida o'rganish mumkin.

"O'g'uznoma" dostoni eski uyg'ur yozuvida bitilgan va hozirda Parij Milliy kutubxonasida saqlanadi. Doston umumturkologiyada jiddiy o'rganilmagan bo'lib, faqat O'g'uz shaxsi haqida bildirilgan fikrlar mavjud (dostondagi mifologik

motivlarni to'g'ri talqin qilishga yordam beradi). "O'g'uznoma" dostonini o'rganishga bo'lgan turkiyshunos olimlarning qiziqishi uning qanchalik keng yoyilganidan va qay darajada ahamiyatga ega ekanligidan dalolat beradi.

"O'g'uznoma" dostonini o'rganishni 1815 yilda nemis olimi Dies boshlab berdi. U asarni shu yili nemis tiliga tarjima qilib, chop ettirdi. XIX asrning oxirida doston V.V.Radlov tomonidan rus tiliga tarjima qilinib, transkripsiyasi amalga oshirildi. Doston, bundan tashqari, Rizo Nur tomonidan turk tiliga, V.Bang tomonidan fransuz tiliga tarjima qilingan.

1959 yili turkolog olim A.M.Shcherbak "O'g'uznoma"ni eski uyg'ur yozuvidagi yana bir asar "Muhabbatnoma" bilan birga rus tiliga tarjima qilib, nashr qildirdi. "O'g'uznoma" dostoni turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi bo'lganligi sababli, 1986 yili qozoq olimlari ham A.M.Shcherbak nashri asosida qozoq tiliga o'girib, qozoq og'zaki adabiyoti va "O'g'uznoma" dostoni xususida fikrlarini bildirdilar. 1987 yilda doston A.M.Shcherbak nashri asosida o'zbek tiliga o'girildi.

"O'g'uznoma" dostoniga ikki yo'nalishda munosabat bildirilgan:

- 1) adabiyotshunoslik yo'nalishida;
- 2) tilshunoslik yo'nalishida.

Adabiyotshunoslik yo'nalishida o'rgangan olimlar dostonning quyidagi tomonlariga e'tibor qaratib, o'z fikrlarini bildirganlar:

- dostondagi O'g'uz shaxsiga va uning prototipiga;
- dostondagi mifologik motivlar talqiniga.

"O'g'uznoma" dostonidagi O'g'uz xoqon timsoli ko'pchilik olimlar tomonidan tarixiy shaxs sifatida talqin qilinadi. V.V.Radlov, Rizo Nur, N.Ya.Bichurin, I.Markvart, D.Sinor, G.Potanin kabi olimlar O'g'uz xoqon timsolida ma'lum bir tarixiy shaxs gavdalantirilgan, degan fikrni ilgari suradilar. Ular O'g'uz xoqon timsoli ostida xun hukmdori Mode (N.Ya.Bichurin), Yuan - Shidagi Bug'axon (V.V.Radlov), Iskandar Zulqarnayn (Rizo Nur), Chingizxon (I.Markvart, D.Sinor) kabi tarixiy shaxslar yotishini ta'kidlaydilar.

Rus turkologi A.M.Shcherbak dostondagi O'g'uz shaxsini "O'g'uznoma"ning

o'ziga asoslanib, uning o'zidan kelib chiqib talqin qilishga harakat qiladi. Olim eposga aniq bir tarixiy hodisalar va obrazlarning begonaligini aytib, O'g'uz xoqonni Mode bilan ham, Iskandar Zulqarnayn va Chingizxon bilan ham bog'lash mumkin emasligini ta'kidlaydi. Jumladan, olim shunday yozadi: O'g'uz xoqon uchun ma'lum bir shaxs asos bo'lgan, deb qarash unchalik ishonchli emas, chunki doston O'g'uz xoqonning epik yodgorlik sifatida o'ziga xosligini nazarda tutmaydi". Bundan ma'lum bo'ladiki, A.M.IIqerbak "O'g'uznoma"ga va O'g'uz shaxsiga, eposlarga, ularning shakllanishiga xos bo'lgan xususiyatlarni nazarda tutib yondashish lozimligini ilgari suradi. Aynan shu sababli olim O'g'uz xoqon obrazi haqida G.N.Potanin bildirgan fikrni bir qadar o'rinli deb baholaydi. G.N.Potanin O'g'uz xoqon obrazi haqida dastlabki fikr bildirgan olimlardan bo'lib, u O'g'uz shaxsiga eposlarning shakllanishi nuqtai nazaridan yondashadi.

Shuning uchun u O'g'uz xoqon obrazining epik xususiyatlari to'g'risida to'xtalib, mo'g'ul og'zaki ijodidagi O'kirbash va "manas" eposidagi Jonibekka bog'laydi .

"O'g'uznoma" dostoni yuzasidan alohida tadqiqotlar olib borgan o'zbek olimlaridan biri N.Rahmonovdir. Doston 1987 yili N.Rahmonov tomonidan o'zbek tiliga o'girildi va "Sharq yulduzi" jurnalida olimning kichik maqolasi ham chop etildi. Ushbu maqolada va olimning 2001 yilda nashrdan chiqqan "Ruhiyatdagi nur murodi", 2003 yilda H.Boltaboev bilan hammualliflikda yozilgan "O'zbek mumtoz adabiyoti namunalari" kabi kitoblarida doston haqida ancha jiddiy fikrlar bayon etilgan. N.Rahmonov dostonidagi mifologik motivlar, ulardan kelib chiqadigan mazmun haqida o'z xulosalarini bildiradi.

Jumladan, olimning dostonidagi ismlar va ular bilan bog'liq mifologik dunyoqarash, tarixchi Rashididdinning "Jome' ut-tavorix" asaridagi O'g'uz afsonasi hamda "O'g'uznoma" o'rtasidagi umumiyliklar borasidagi fikrlari diqqatga sazovordir.

"O'g'uznoma" dostoni turkiy xalqlarning mushtarak yodgorligi bo'lganligi sababli ozarbayjon va turkiyalik olimlar tomonidan ham keng tadqiq qilingan.

Ozarbayjon olimi X.Ko'ro'g'lining "O'g'uz qahramonlik eposi" nomli

asarida, asosan, o'g'uzlarning afsona va rivoyatlarini jam etgan manbalar haqida ma'lumot beriladi. Olim "Dada Qo'rqut kitobi" dostoniga ko'proq to'xtalish bilan birga, uyg'ur yozuvidagi "O'g'uznoma" va Abdulg'azi Bahodirxonning "Shajarai turk", Rashiddin Hamadoniyning "Jome' ut-tavorix" asarlaridagi O'g'uzxon afsonalari borasida ham fikr bildiradi.

Ko'ro'g'li bu manbalarni solishtirib, o'xshash va farqli jihatlarini ko'rsatib bergan. Yana bir ozarbayjonlik olim M.Seyadov o'zining "Azarbayjon mifik tafakkurining manbalari" nomli kitobida "O'g'uznoma" dostoni haqida fikr bildiradi. Olim dostonidagi mifologik obrazlar va mifologik motivlar yuzasidan xulosalarini o'rtaga tashlagan.

Turkiyalik olim Bahouddin O'g'alning 1993 yilda nashr qilingan "Turk mifologiyasi" nomli asarida "O'g'uznoma" dostoni va O'g'uz hoqon haqidagi tarixiy asarlarda keltirilgan afsonalar chuqur tadqiq qilingan.<sup>1</sup> Mazkur asar 13 bobdan iborat bo'lib, 5-7-boblardan "O'g'uznoma" dostoni va O'g'uz hoqon haqidagi boshqa afsonalar tadqiqi o'rin olgan. Muallifning "O'g'uznoma" dostonini sinchiklab tadqiq qilganligi, har bir detalni sinchkovlik bilan o'rgangani diqqatimizni tortadi. Masalan, asarda "O'g'uzxonning tug'ilishi" deb nomlangan qism mavjud. Bu qismda olim O'g'uzxon tug'ilganda tasvirlashda qo'llaniladigan har bir rangga e'tiborini qaratadi, bu ranglar zamirida aks ettirilgan ma'nolarni yoritib berishga harakat qiladi.<sup>2</sup>

Kosmogonik miflar, xulosa qilib aytganda, kimdir qandaydir usulda nimanidir yaratdi ko'rinishdagi sxemaga javob bo'la oladi. Asosini mifologik dunyoqarash, miflarga xos ramziylik tashkil qilgan "O'g'uznoma" dostonida kosmogonik tasavvurlar qanday aks etgan? Bu xil tasavvur dostonida O'g'uzxonning ikki ayoliga uylanishida va farzandlarining ismlarida ko'zga tashlanadi. O'g'uzxonning birinchi ayoliga uylanishi lavhasiga e'tibor qarataylik: "Kunlardan bir kuni O'g'uz hoqon bir erda Tangriga yolvorayotgan edi. Qorong'u tushganda, ko'kdan bir ko'k nur tushdi. Quyoshdan yorug', oydan yorqinroq edi.

---

<sup>1</sup> Ўғал Баҳоуддин. Турк мифологияси. Анкара, 1993.

<sup>2</sup> Ўша асар, 133-137-бетлар.

## *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*

---

O'g'uz hoqon u tomonga yurdi. Ko'rsaki, o'sha yorug'likning orasida bir qiz bor edi. Boshida otashga o'xshash yorug' xoli bor edi. Xuddi oltin qoziq yulduziga o'xshash edi. U qiz shunday chiroyli ediki, kulsa ko'm-ko'k osmon kulardi, yig'lasa ko'm-ko'k osmon yig'lardi".

Tasvirdan ham ko'rinib turibdiki, O'g'uzxonning bu uchratgan qizi oddiy qiz emas. U bu qizga uylangandan so'ng ulardan uch farzand dunyoga keladi: Kun, Oy, Yulduz.

Avvalo, qahramon qizni "ko'kdan tushib turgan ko'k nur orasida" uchratdi. Yanu bu paytda O'g'uzxon tangriga yolvorayotgan, ya'ni o'zi ham bir ilohiylikka cho'mgan payti edi. Turkiy mifologiyada ko'k so'zi ulug'likni, yuksaklikni anglatadi. Nur esa vositadir. Demak, Samo qizi bilan O'g'uzxonning uchrashishida ulug' nur vositachilik qilmoqda. "Jahon xalqlari asotirlari" deb nomlangan ensiklopediyada kosmogonik miflar haqida ma'lumot berilib, olamning yaralishida ilk inson yoki madaniy qahramon, ko'pincha ayol va erkak yaratuvchilik vazifasini o'tashi ta'kidlanadi.